

XORIJIY TILNI O‘QITISHDA MASOFAVIY TA‘LIMDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Turg'unboyeva Mohira

Amirova Lobar

Annotatsiya: Bugungi kunda chet tilini o‘rganish, axbrot texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada xorijiy tilni o‘qitishda masofadan ta‘limdan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: chet tili , milliy va xalqaro sertifikat, yangi usul va talablar, aspect, raqamli va masofaviy ta‘lim, ta‘lim tamoyillari, elektron o‘quv materiallar.

Barchamizga ma‘lumiki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida 2021-yildan chet tili o‘qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo‘lish talabi kiritilishi haqida ta‘kidlangandi. Bu esa biz chet tili o‘qituvchilarining yelkasiga ulkan mas‘uliyatni yuklaydi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta‘lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darsliklar yaratilmoqda. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshdi. Chet tili fani to‘rt aspectga (o‘qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berildi. Shuningdek, chet tilini o‘rganishda masofaviy ta‘limdan foydalanishni yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifa etib belgilandi.

Mamlakatimizda 2019 yilning oktabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi qabul qilindi. Unda oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish ahamiyatli yangilik bo‘ldi. Pandemiya sharoitida 2030 yilgacha Rivojlanish kontsepsiyasida ko‘zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish kutilmagan

va ko'p jihatdan majburiy tezlashuvni qamrab oldi. Muammolarga yetarlicha javob berish uchun butun ta'lim tizimini, shu jumladan, nafaqat oliy ma'lumotni, balki o'rta maktabni va hatto maktabgacha ta'limni zudlik bilan qayta tashkil etish kerak edi. Qisqa vaqt ichida O'zbekistonning to'liq ta'lim tizimi raqamli va masofaviy ta'lim tamoyillari asosida qayta qurildi va ishga tushirildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini uzluksizligini ta'minlash hamda talabalarning bilim olish faoliyatini masofadan turib metodik qo'llab-quvvatlash maqsadida 2020 yil 1 apreldan masofaviy ta'lim platformalari ishga tushirildi. Bunday platformalar, avvalambor, imkoniyati bor talabalarga chet tilini o'qitishda mutlaqo yangi formatdagi, ya'ni virtual muhitda talabalar va o'qituvchi auditoriyasini shakllantirish orqali o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatini berdi.

Masofaviy o'qitish tizimi (Distance Learning System) masofaviy o'qitishni tashkil qilish, o'quv jarayonini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash tizimi, elektron hujjat aylanishi, elektron o'quv materiallarini yaratish, o'rganilayotgan fan doirasida boshqaruvni boshqarish va taraqqiyotni baholash va maslahat berish uchun dasturiy ta'minotdir. Masofaviy o'qitish o'qituvchi va talaba bir-biridan uzoq bo'lsa, o'qitishga imkon beradigan Internet texnologiyalaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. Endi buning uchun Internet yoki mahalliy kompyuter tarmoqlarining imkoniyatlaridan foydalanilmoqda.

Masofaviy o'qitish jamiyat taraqqiyotining zamonaviy darajasiga hozirgi talablar asnosida eng mos keluvchi ta'limdir. Masofadan o'qitish tizimlari ham maktab o'quvchilarini, ham talabalarni, ham ishchilarni ish joyiga tayyorlashga imkon beradi. Ayniqsa chet tilini o'qitishda masofaviy ta'limdan foydalanish yuqori samara beradi.

Haqiqatdan ham, chet tilini masofaviy ta'limdan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

— kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

— chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlari eshitish va tomosha qilish mumkin;

— ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;

— CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamon ilgari borгани sari har bir sohada yangilik ko'paymoqda. Ayniqsa, bugungi kunda chet tilini o'rganish, axbrot texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Til bizning his-tuyg'ularimizni, istaklarimizni ifoda etishga va atrofimizdagi boshqa odamlar bilan bog'lanishda yordam beradi va mazmunli munosabatlarni shakllantiradi. Chet tilni o'rganish sizni ko'proq ochiq fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PD-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

2. Jamol Jalolov chet til o'qitish metodikasi, o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent – 2012

3. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

4. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784

Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423www.oriens.uzOctober 2021
samaradorligi /

5. М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — No 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: